

Uzbekistan Airways Nukus - Mo'ynoq - Toshkent yo'nalishidagi aviaqatnovni yo'lga qo'ymoqda

2022 8 Sentabr

Mo'ynoq va Nukus aholisi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda yo'lovchilarning talab va istaklarini inobatga olgan holda, 2022-yil 12-sentabrdan boshlab "Uzbekistan Airways" AJ Nukus-Moynoq-Nukus yo'nalishidagi qatnovlarni joriy qilmoqda. Aviaqatnovlar dushanba kunlari amalga oshiriladi.

Nukusdan jo'nab ketish: 09:45

Mo'ynoqqa yetib borish: 10:45

Mo'ynoqdan jo'nab ketish: 11:25

Nukusga yetib borish: 12:25

Shuningdek, faqat joriy yilning 9-sentabr kuni HY-012 Nukus – Toshkent yo'nalishida aviaqatnov Mo'ynoq aeroportiga qo'nib, yo'lovchilarni bortga qabul qiladi hamda quyida ko'rsatilgan jadval bo'yicha amalga oshiriladi:

Nukusdan jo'nab ketish: 09:45

Mo'ynoqqa yetib borish: 10:45

Mo'ynoqdan jo'nab ketish: 11:25

Toshkentga yetib borish: 13:25

Aviachiptalarni Uzbekistan Airways Sales filialida, aviakompaniya agentlaridan yoki www.uzairways.com rasmiy saytidan 3% chegirma bilan xarid qiling.